

## PUDRAT SHARTNOMASI

2022y. « 15 » 7

84-4-69-OB/2022-son

Qarshi sh.

Ushbu shartnomani bir tomondan o'zining (nizomi, ustavi, ishonchnomasi) asosida ish yurituvchi Qarshi shahar hokimligi huzuridagi «Obodonlashtirish boshqarmasi» boshlig'i **T.Cho'panov** bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi va ikkinchi tomondan «Pudratchi» «**NASAF MEGA RICH LEADER MIR**» masulyati cheklangan jamiyati o'zining (nizom, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi rahbari **X.Jumanov** nomidan ushbu shartnomani ikki tashkilot o'rtasida pudrat ishlarini bajarish uchun shartnoma tuzildi.

### **1. Shartnoma predmeti.**

1.1 «Pudratchi» o'z zimmasiga buyurtmachining topshirig'iga ko'ra, Fontanlarni ta'mirlash saqlash va boshqa zaruriy extiyot qismlar hamda asbob uskunalar sotib olish ishlari uchun tuzilgan 2022-yil 13-iyuldagi 77-4-69-OB/2022-sonli shartnomasini «SARKOR UNIVERSAL FAMILY» xususiy korxonasining xatiga asosan bekor qilish «Buyurtmachi» esa «**NASAF MEGA RICH LEADER MIR**» masulyati cheklangan jamiyati bilan shartnoma tuzish ishlari, qabul qilib olish va bajarilgan ish uchun haq to'lash majburiyatlarni oladi.

### **2. Shartnoma bahosi.**

2.1 Tuzilayotgan shartnomada ko'rsatilayot 94 800 000 (To'qson to'rt million sakkiz yuz ming) so'mni 2022 yil 6-iyundagi 381-4-69-Q/22 Qarshi shahar hokimining qaroriga asosan ajratilgan mablag xisobidan to'lab beriladi. Shartnomaning bahosi «Buyurtmachi» taqdim etgan smeta, spetsifikatsiya va tijorat taklifi asosida belgilanadi. Shartnomaning bahosi taraflarning har ikkalasi tomonidan ma'qullanib, infasil oqibatlariga ko'ra o'zgarishi mumkin. Shartnoma bahosidan oshib ketish bilan bog'lik xarajatlarni to'lash ushbu shartnomaning 3-bandidagi nazarda tutilgan tartibda «Buyurtmachi» tomonidan amalga oshiriladi.

### **3. Shartnoma bo'yicha to'lov**

3.1 Ushbu shartnoma bo'yicha bajarilishidan avval bajarilgan ishni umumiy qiymatidan 30 % miqdorida va yakuniy to'lov ya'ni kelishilgan summaning 70% foizi ish bajarilgandan keyin Pudratchi tomonidan dalolatnomaga asosan hujjatlarini taqdim qilingandan keyin amalga oshiriladi.

3.2 Agarda moliyalashtiruvchi organ tomonidan mazkur obyekt uchun pul mablag'lari bilan ta'minlanmagan taqdirda buyurtmachi bajarilgan ishlar uchun pul to'lovlarini shartnomada belgilangan muddatda amalga oshirish majburiyatini olmaydi.

3.3 To'lov shakli to'lov topshiriqnomasi asosida bo'ladi.

3.4. Shartnoma bo'yicha oxirgi hisob-kitob va xizmatlar ishlari to'liq tamomlagandan keyin, 30 kun kechiktirmay, (bunga ishni qabul qilib olish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish ham) «Buyurtmachi» tomonidan amalga oshiriladi.

3.5 Nuksonli dalolatnomaga ko'rsatilgan va xarajatlardan haqiqatda qilingan ishlar uchun xarajatlar oshganda tomonlar qo'shimcha kelishuv bitimi tuzadilar.

### **4. Majburiyatlarni bajarish muddatlari**

4.1 «Pudratchi» ushbu shartnomaning 1-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni belgilangan kalendarning rejasida nazarda tutilgan muddatda bajaradi.

4.2 Shartnomaning amalda bo'lish muddati: Mazkur shartnoma ikki tomonlar tomonidan imzolanganidan so'ng hududiy g'aznachilik bo'linmasidan shartnomalarni ro'yxatga olish bo'limidan ro'yxatga olingandan keyin haqiqiy ko'chga kiradi. Muddati « 31 » 12.2022 yil.

#### **5. Taraflarning majburiyatlari.**

5.1.1 O'z kuchi va vositasi bilan kalendar rejasida nazarda tutilgan barcha ishlarni to'la hajmda va muddatida bajarilishi va tegishli hujjatlaridagi holatda ishlarni «Buyurtmachi»ga shartnomada ko'rsatilgan muddatda topshirish;

5.1.2 Obyektga nuqsonli dalolatnomaga binoan zarur bo'lgan ehtiyot qismlarni beradi va o'rnatish dalolatnomasiga asosan qabul qilish tahlash hamda saqlashni amalga oshiriladi;

5.1.3 Ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan shartnoma tuzgani to'g'risida «Burtmachi»ga axborot berish;

5.1.4 Maxsus texnikalarga ehtiyot qismlari o'rnatish ishlarini sifatli bajarilishini ta'minlashi shart.

5.2.1 Kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda obyektni «Pudratchi»ga topshirish;

5.2.2 Ushbu shartnomaning bo'limlarida nazarda tutilgan ishlarga shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda «Pudratchi»ga xaq to'lashi;

5.2.3 «Pudratchi»dan yozma xabarnoma olgan sanadan boshlab 2 hafta mobaynida texnikalarni qabul qilishi;

#### **6. Taraflarning javobgarligi.**

6.1. «Pudratchi» mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazib berilmagan mahsulotlarining summasining 0.5 foizi, lekin 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.2. Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan, miqdorida penya to'laydi.

6.3. «Pudratchi» mahsulotlari sifatini o'z xisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Buyurtmachi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan mahsuloti qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4.«Buyurtmachi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Pudratchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 15 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Buyurtmachi» o'zining hududiga olib kelingan mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Buyurtmachi» yetkazib berilgan mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shartsharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

#### **7. Fors-Major holatlari**

7.1 Taraflarning birortasi boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan teskari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo'lmagan holatlar bunga urush e'lon qilinishi yoki amalda boshlangan fuqarolik tartibsizligi, vabo tarkalishi, blokada, embargo yer kimirlashi, suv bosishi yong'in va boshqa tabiiy ofat bilan bog'liq holda bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

7.2 Bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari yoki boshqa vakolatli organlari tomonidan berilgan guvohnomalari uning yetarli darajadagi tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

7.3 Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlar uch oy davomida muntazam ta'sir etayotgan bo'lsa va tugash belgilari aniqlanmasa «Buyurtmachi» yoki «Pudratchi» yozma xabar yuborish yo'li bilan ushbu shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## **8. Nizolarni hal qilish tartibi.**

8.1 Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma shartnoma bo'yicha yoki bilan bog'lik bo'ladigan barcha nizolar hamda kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.

8.2 Agar kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal qilib bo'lmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudlarga murojaat qilish orqali hal qilinadi.

## **9. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi.**

9.1 Ushbu shartnomaga har qanday kiritilgan qo'shimcha o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala taraf imzolagandan so'ng haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

9.2 Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuvi bo'yicha yohud O'zbekiston Respublikasi amaldagi fuqarolik kodeksi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

9.3 Buyurtmachi qo'yidagi holatlarda shartnomani bekor qilishi mumkin: «Pudratchi»ning aybi bilan ishlarning borishini sustkashlik bilan to'xtatib turilishi ya'ni ushbu shartnomalar tamom bo'lishi muddati bir oydan oshib ketganda; loyiha-smeta hujjatlarida ko'rsatilgan ishlarning sifati pasayganda;

9.4 «Pudratchi» qo'yidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli: «Buyurtmachi» tomonidan qurilish ishlari moliyalashtirish imkoniyati bo'lmaganda.

9.5 «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning birgalikdagi shartnoma bekor qilinganda «Buyurtmachi»ga to'g'atilmagan qurilishni topshiradi. «Buyurtmachi» esa «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlarning hajmi qiymatini to'laydi.

9.6 Shartnoma bekor qilishga qaror qilgan taraf ikkinchi tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

## **10. Boshqa shartlar.**

10.1 Obyektlar va unga kiruvchi muxandislik tizimlari, jihozlar materiallar hamda ishlarning me'yorida ishlashiga kafolatlangan muddati uning shaxslar tarafidan ko'zlangan niyatda shikast yetkazgan hollari bundan mustasno qilmadi. Obyektni kafolat muddati qabul qilish to'g'risida dalolatnomani imzolagan vaqtdan boshlab 12 oy davomida belgilanadi.

10.2 Obyektni yopishga kafolatlangan muddat «31»12 2022 yil.

10.3 Agar obyektni kafolatlangan muddati davrida foydalanish davomida uning me'yorida foydalanishga yo'l bermaydigan kamchiliklari aniqlansa, ularni bartaraf qilish «Pudratchi» tomonidan amalga oshiriladi.

10.4 Kamchiliklarning mavjudligi va ularni bartaraf qilish muddatlari «Pudratchi» va «Buyurtmachining» ikki tomonlama dalolatnomasida aks ettiriladi.

10.5 «Pudratchi» aniqlangan kamchiliklarni tasdiqlash, ish dalolatnomasi tuzish yoki imzolashdan bosh tortganda buyurtmachi malaka ekspertizasini ta'minlaydi. Ekspertiza

kamchiliklarni va ularni tuslarini aks ettirish bo'yicha tegishli dalolatnoma tuzadi. Har ikki  
taraflni mazkur masala bo'yicha iqtisodiy sudiga murojat qilish huquqini istisno qilmaydi.

10.6 «Pudratchi»ning aybi bilan Obyektни qurish jarayonida uchinchi shaxslarga  
yetkazilgan zarar «Pudratchi» tomonidan «Buyurtmachi»ning aybi bilan bo'lsa,  
«Buyurtmachi»ning tomonidan yetkazilgan zararining to'la qiymati to'lanadi.

10.7 Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib ikki nusxada tuziladi.

10.8 Taraflarning hohishi bo'yicha boshqa shartlar.

## 11. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

11.1. Shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu  
jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy  
hujjatlardagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini  
ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

11.2. Sotib oluvchi ushbu shartnoma amalda bulgan butun davr mobaynida u  
(shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari)  
sotuvchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Sotuvchining  
hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining  
Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

## 12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

### “PUDRATCHI”

“NASAF MEGA RICH LEADER MIR”

MChJ

Manzili Qarshi shahar

Telefon

X/R x/r 2020 8000 0054 5186 2001

Bank ATB « ASIA ALLIANCE BANK»

Qarshi shahar f-i

MFO 01099

INN 308973785



X. Jumanov

### «BUYUTMACHI»

Qarshi shahar IHH “ Obodonladonairish  
boshqarmasi»

Manzili: A.Navoiy ko'chasi 27 uy

Telefon

sh/r

Inn 207 106 244

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi  
gaznachiligi

x/r 2340 2000 3001 0000 1010

Bank Markaziy bank Toshkent shahar bosh.

Boshqarmasi XKKM

INN 201 122 919

MFO 00014

OKONA 90 211

Rahbar



T.SH.Cho'panov

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

### 1. Loyihaning turi:

Fuqarolik shartnomasi. Pudrat shartnomasi.

### 2. Loyihaning nomi:

“Qarshi shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi (buyurtmachi) bilan “Qarshi shahar hududidagi fontanlarni ta'mirlash saqlash va boshqa zaruriy ehtiyot qismlar hamda asbob uskunalar sotib olish ishlari uchun tuzilgan 2022-yil 13-iyuldagi 77-4-69-OB.2022-sonli shartnomasini “SARKOR UNIVERSAL FAMILY” xususiy korxonasining xatiga asosan bekor qilish «Buyurtmachi» esa “NASAF MEGA RICH LEADER MIR” MCHJ bilan shartnoma tuzish ishlari, qabul qilib olish va bajarilgan ish uchun 95 000 000 (to'qson besh million) so'm miqdorida haq to'lash haqida”.

### 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Qarshi shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i T.Cho'panov, 2022-yil 15-iyul.

Loyiha amaldagi O'zbekiston Respublikasining 21.12.1995 yildagi Fuqarolik Kodeksi ( I qism)ning 260-263-moddalari, 29.08.1996 yildagi Fuqarolik Kodeksi ( II qism)ning 631-633, 635-636,638-655-moddalari, 29.08.1998 yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi O'RQ-670-I-sonli Qonunining 24-35-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 15.02.2005 yildagi “yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarini tasdiqlovchi mexanizmini amalga kiritish to'g'risida”gi 63-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Qarshi shahar yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti

M.K.Turdiyeva

2022-yil 15-iyul



## Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Qarshi shahar hokimligi xuzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf' olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

- pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;
- tovlamachilik qilish;
- pora sifatida pul to'lash;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Qarshi shahar hokimligi xuzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni:  
199875-223-17-15

Telegram-kanali <https://t.me/qarshishaharhokimligi>;

### TOMONLAR:

Bajaruvchi \_\_\_\_\_  
(Bajaruvchi nomi)  
  
(imzo)

Qarshi shahar hokimligi xuzuridagi  
Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i  
T.Cho'panov \_\_\_\_\_

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 115515 на приобретение Карши шаҳридаги мавжуд фонтанларни таъмирлаш саклаш ва бошка зарурий ехтиёт кисмлар ва асбоб ускуналар сотиб олиш.**

Способ проведения электронный

Дата 14.07.2022

Время рассмотрения 06.07.2022 18:36

Конкурсная комиссия Карши шаҳар Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	DJABBOROV RUSTAM TILOVOVICH	Bosh muhandis	Карши шаҳар ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	XUDAYBERDIYEV ORIF BERDINAZAROVICH	Bosh mexanik	Карши шаҳар ободонлаштириш бошкармаси.
<b>Секретарь комиссии</b>	JURAYEV KAMOLIDDIN TURDIQULOVICH	Infratuzilma obyektlarini saqlash bo'limi boshlig'i	Карши шаҳар ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	ISHONKULOV NODIR RUSTAMOVICH	Obodonlashtirish obyektlarini saqlash bo'limi boshlig'i	Карши шаҳар ободонлаштириш бошкармаси.
<b>Член комиссии</b>	ESHNAZAROV MANSUR ERMATOVICH	Bosh agronom	Карши шаҳар ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	ARSLANOVA RA'NO RASULOVNA	Bosh iqtisodchi	Карши шаҳар ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 14.07.2022 года № лота 115515.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по очистке фонтанов</b>
Подробное описание	Фонтанларни таъмирлаш саклаш ва бошка зарурий ехтиёт кисмлар ва асбоб ускуналар сотиб олиш.
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	95 000 000.00
Стартовая сумма	95 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Шу турдаги хизматларни кўрсатиш буйича иш тажрибаси:

Тип: Текстовое значение

Описание: Тасдиқловчи ҳужжат: Ташкилотнинг давлат рўйхатидан ўтганлиги тўғрисида гувоҳнома нусхаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK	20	Нусхаси илова килинди	20	Экспертная		
NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ	20	Файл бриктирилди	20	Экспертная		

Критерий №2 Бажарилган ишлар жами

Тип: Текстовое значение

Описание: Тасдиқловчи ҳужжат: Хизматларини амалга ошириш бўйича охириги 3 йилда бажарган ишлари тўғрисида маълумотлар, ташкилотлар билан тузилган шартномалар нусхаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK	20	Нусхаси илова килинди	20	Экспертная		
NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ	20	Файл бриктирилди	18	Экспертная		

Критерий №3 Объект қийматининг 10% миқдорида айланма маблағлар мавжудлиги,

Тип: Текстовое значение

Описание: Объект қийматининг 10% миқдорида айланма маблағлар мавжудлиги,

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK	20	Нусхаси илова килинди	20	Экспертная		
NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ	20	Файл бриктрилди	15	Экспертная		

Критерий №4 Танловда иштирок этадиган ташкилот, махсус харифлар билан белгиланадиган бал рейтинги бўлиши зарур

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган ташкилот, махсус харифлар билан белгиланадиган бал рейтинги бўлиши зарур

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK	20	Нусхаси илова килинди	20	Экспертная		
NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ	20	Файл	16	Экспертная		



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		бриктирилди				

Критерий №5 Катнашувиларнинг бошка юридик шахслардан карздорлиги булмаслиги керак

Тип: Текстовое значение

Описание: карздорлиги мавжуд булганда вақтда таккослаш далолатномалри булиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK	20	Нухаси илова килинди	20	Экспертная		
NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ	20	Файл бриктирилди	18	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ	95 000 000.00	95 000 000.00 UZS	95 000 000.00	00.00	95 000 000.00	06.07.2022 16:29:44	29.94
SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK	95 000 000.00	94 800 000.00 UZS	94 800 000.00	00.00	94 800 000.00	06.07.2022 16:23:03	30.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ	60.9	29.93684	90.83684
SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK	70	30	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 115515 от 14.07.2022 года на приобретение Карши шахридаги мавжуд фонтанларни таъмирлаш саклаш ва бошка зарурий ехтиёт кисмлар ва асбоб ускуналар сотиб олиш. определила победителем:

SARKOR UNIVERSAL FAMILY XK  
309090096

и резервный исполнитель: NASAF MEGA RICH LEADER MIR MCHJ (308973785)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	DJABBOROV RUSTAM TILOVOVICH	Согласен	

Член комиссии	XUDAYBERDIYEV ORIF BERDINAZAROVICH	Согласен	
Член комиссии	ISHONKULOV NODIR RUSTAMOVICH	Согласен	
Член комиссии	ESHNAZAROV MANSUR ERMATOVICH	Согласен	
Член комиссии	ARSLANOVA RA'NO RASULOVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"NASAF MEGA RICH LEADER MIR" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda to'liq nomi)

**"NASAF MEGA RICH LEADER MIR" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

**20.10.2021**

**1053720**

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

**308973785**

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Samarqand MFY, Islom Karimov  
ko'chasi, 366-uy.

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan  
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)





**QASHQADARYO VILOYATI  
QARSHI SHAHRI HOKIMINING  
QARORI**

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko'chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2022 - yil 6 - iyun

381-4-69-Q/22

Qarshi shahar hokimligi

**Qarshi shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga shaharda obodonlashtirish  
va ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish xarajatlariga qo'shimcha  
mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi "Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4351-sonli va Xalq deputatlari Qarshi shahar kengashining 2022-yil 6-iyundagi VI-36-66-4-69-K/22-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Qarshi shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga shahar mahalliy byudjetining 2022-yilning I-chorak yakuni bo'yicha daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shaharda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini bajarish xarajatlariga 314,154 (uch yuz o'n to'rt million bir yuz ellik to'rt) mln.so'm miqdoridagi qo'shimcha mablag' ilovaga muvofiq ajratilsin.

2. Qarshi shahar moliya bo'limi (Ashurov) belgilangan tartibda moliyalashtirish rejasiga o'zgartirish kiritishni, G'aznachilik bo'linmasi (Qanatov) ajratilgan mablag'ni kassa ijrosini o'z vaqtida ta'minlasin.

3. Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasi (Chupanov) ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalansin.

4. Viloyat Davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi (Raxmatov)dan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish

soʻralsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi oʻrinbosari K.Sultanov zimmasiga yuklatilsin.

**Qarshi shahar hokimi**



**N.Xolboyev**

Qarshi shahar hokimining  
2022 yil 6 iyundagi  
381-4-69-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

**Qarshi shahar mahalliy budjetining 2022-yilning I-chorak yakuni bo'yicha daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan yo'naltiriladigan mablag'lar to'g'risida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Bajariladigan ishlar</b>	<b>Ajratilgan mablag' miqdori</b>
1	Obodonlashtirish boshqarmasi	Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudining 12.05.2022 yildagi 2203/114-sonli ishi bo'yicha shaharning turli hududlariga mavsumiy gullarni olib kelish va ekish ishlaridan qarzдорlikni qoplash xarajatlariga	218 800 000
2	Obodonlashtirish boshqarmasi	Qarshi shahridagi mavjud fontanlarni ta'mirlash, saqlash va boshqa zaruriy ehtiyot qismlar va asbob-uskunalar sotib olish xarajatlariga	95 354 000
		<b>JAMI</b>	<b>314 154 000</b>